



# Alisher Navoiyning “Hayrat Ul-Abror” Dostonining Ma’rifiy Ahamiyati.

Umarov Sardorbek Akmalovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti

Elektron pochta: s.umar.91@mail.ru.

## Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida hayrat, ko‘ngil, abror, abrorlik yo‘li, tushunchalari futuvvat bilan bog‘liq ravishda tahlil qilingan. Maqolada hayratning va ko‘ngilning abror inson yo‘lidagi tutgan o‘rni diniy, falsafiy, tasavvufiy va irfoniy jihatdan tahlil qilindi. Dostondagi uch hayratning asardagi ma’rifiy ahamiyati, ko‘ngil sayri va uning irfoniy mohiyati yuksak gumanistik qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

## Kalit So‘Zlar:

Komil inson, abror, abrorlik yo‘li, futuvvat, ko‘ngil tasviri, uch hayrat, an’ana va poetik mahorat.

Buyuk so‘z san’atkori Amir Alisher Navoiy ijodini o‘zining falsafiy, axloqiy, ta’limiy jihatidan abadiyatga daxldordir. Shoir olam va odam haqidagi umumbashariy mavzular haqida fikr yuritar ekan, unda insonni Allohnинг buyuk yaratig‘i, koinotning gultoji deb biladi. Navoiy bu haqida “Hayrat ul-abror” dostonida shunday ta’riflaydi:

Borchasini garchi latif aylading,  
Borchadin insonni sharif aylading.

Muncha g‘aroyibki misol aylading,  
Borchani mir’oti jamol aylading.

Ganjing aro naqd farovon edi,  
Lek boridin g‘araz inson edi.<sup>1</sup>

Shoir “Lek boridin g‘araz inson edi” degan falsafiy xulosasi orqali inson ko‘ngilni nazarda tutadi. Navoiy dostonining yuqoridagi “Avvalgi munojot” qismida keltirilgan misralar orqali insonni yaratilishini yuksak avj pardalarda tasvirlaydi. Alloh komil insonni yaratishda inson ko‘ngliga pinhoniy sirni yashirib, inson vujudni unga bir tilsim qilib yaratganini shoir quyidagicha izohlaydi:

Turfa kalomingg‘a dog‘i komil ul,  
Sirri nihoningg‘a dog‘i homil ul.

Ko‘ngliga qilding chu yaqin ganji qism,  
Jismini ul ganja qilding tilsim.

Navoiyning vahdat va kasrat haqidagi qarashlarini ifoda qilishi ham aslida uning ma’naviy maqomi bilan bog‘liq:

Emas erdi maqsud juz odamiy,  
Ki Haq sIRRining bo‘lg‘ay ul mahrami.

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул аброр. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 7-том. – Тошкент: Фан, 1991.



Baridin g‘araz garchi inson edi,  
Anga dag‘i maqsud irfon edi.

Bu so'z sidqig'a dag'i beta'nu tanz,  
Dalolat qilur oyati "kuntu kanz"

Navoiy bu olamning yaratilishidan maqsad inson, insondan maqsad ko‘ngil, ko‘ngildan maqsad esa irfon deydi. Shoir irfon deganda ko‘ngil orqali Allohn bilish ma’rifatini nazarda tutadi. Navoiyning bunday xulosaga kelishining asosi Qur’oni Karimning “Baqara surasi”da keltirilgan: *“Ey insonlar! Sizlarni va sizlardan oldingilarni yaratgan Rabbingizga iymon keltiring! Shoyad, taqvadorlardan bo‘lsangiz.”* 21-oyatga borib bog‘lanadi. Bu oyati kalimaning bayoni keyinchalik qudsiy hadis va tasavvufiy manbalarda quyidagicha keltiriladi: *“Kuntu kanzan maxfiyan faahbabtu an u’rafa faxalaqtul xalqa”, ya’ni Alloh “Men bir maxfiy xazina edim. Bas, tanilishni iroda etib, barcha mavjudot va maxluqotlarni yaratdim deydi”.*<sup>2</sup> (Bu “hadisi mukoshafa” bo‘lib, “Ruhul-bayon” tafsirining muallifi Ismoil Haqqiy o‘zining “Kanzi maxfiy” nomli risolasida uni keng tahlil etadi.)

Qur’oni Karim, hadisi shariflar hamda irfoniy va tasavvufiy manbalarning guvohlik berishicha, mazkur oyat va uning mukoshafasi sanalgan qudsiy hadislarda keltirilgan xabarlargaga tayanib Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonning 17-bobida yanada bu haqidagi qarashlarini aniqroq bayon qilishga harakat qiladi:

Subhi azal qildi chu dehqoni sun',  
Odami xokiyni gulistoni sun'.

Kim bu rayohing‘a yetishti futuh,  
O‘ylaki tan gulshanig‘a kirdi ruh.

Ermas edi anda g‘araz hech gul,  
G‘ayri ko‘ngulkim, g‘araz erdi ko‘ngul.

Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni orqali insonni ruhiy va ma’naviy jihatdan komillik kasb etishida ko‘ngilni tarbiyalash kerakligiga alohida urg‘u beradi. Navoiy 17-bobda ko‘ngilni ta’riflab, uni Ka’badan ham ustun qo‘yadi:

Ka'baki olamning o'lub qiblasi,  
Oadri yo'q andoqki ko'ngil ka'basi.

“Hayrat ul-abror” dostonida ko‘ngil tasviri bilan birgalikda hayrat va abror tasviriga ham e’tibor qaratish dostonning falsafiy mohiyatini teran anglashga imkon beradi. Alisher Navoiy hayrat va abror istilohning sharq va islomiy tafakkuri, tasavvufiy asoslari va irfoniy mohiyatlaridan xabardor bo‘lgan holda qo‘llagan.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida "hayrat" so'zi — taajjublanish, hayron qolish hamda tasavvufda qulning fanofilloh holiga yetishuvi uchun egallanishi zarur bo'lgan maqom deb ta'riflanadi. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida hayrat haqida quvidagi fikrlar masalaning mohiyati to'g'ri anglashga xizmat qiladi:

*“...Ibrohim Fotik debdurki, Abu Ya’qub Nahrajuriy debdurki, dunyo — dengiz, oxirat — uning sohili. Kemasi — taqvo. Odamlar safar qiluvchilardir. Va ham ul debdurki, odamlar ichida Allohni ko ‘proq tanuvchi kishi unga hayrati ko ‘proq bo ‘lganidir”.*<sup>3</sup>

<sup>2</sup> Қуръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муваллифи Алоуддин Мансур.-Т.: Чўлпон, 1992.

<sup>3</sup> Навоий Алишер. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик.-Тошкент: Фан, 2001. Т.17. 67 б.



“...Tohir Maqdisiy debdurki, Zunnun Misriy manga dedikim, Allohnning zoti haqida idrok qilish johillikkadir. Uning ma’rifat haqiqatidan so ‘zlash hayratdir. Ishorat qiluvchining ishorati shirkdir. “Nasoyim ul-muhabbat”ning avliyouulloh shayxlardan to‘qqizinchisi bo‘limida shunday hikmat keltiradi: “Va ham Zunnun debdurkim, Olloh zotini tafakkur qilishlik nodonlik va Unga ishorat qilishlik shirkdur. Ma’rifatning haqiqati hayratdur”.<sup>4</sup>

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulovning guvohlik berishicha, Alisher Navoiy asaridagi hayratning ildizi shu ma’rifiy kontseptsiya (“Ma’rifatning haqiqati hayratdur”)ga borib taqaladi” degan fikrni ilgari suradi.<sup>5</sup>

Demak, “Hayrat ul abror” dostonidagi hayratning ma’rifiy asosida abror insonning, eng avvalo, Yaratganning ma’rifatini bilish, o‘zlikni va dunyoni anglash mohiyati yotadi.

“Hayrat ul-abror” dagi ko‘ngilning uch hayrati tasviri ham butun “Xamsa” kotebstida Navoiy aytmoqchi bo‘lgan fikrni tugal ifodalash imkonini berish bilan birgalikda abror insonning mosivallohdan yuz burib ma’rifatullohga yetishishuvini ham ifodalaydi.

“Hayrat ul-abror” dostonida ko‘ngil sayri uch hayrat orqali tasvirlanadi. Shu bois ham “Uch hayrat” qismida Navoiy ko‘ngilni falsafiy, tasavvufiy va irfoniy mohiyatini batafsil ta’riflaydi:

Subhdur, ey soqiy, etib mehr fosh,  
Tut manga bir jom nechukkim quyosh.

Berdi sahar hullasi zarrishta tob,  
Qolmadi tun pardasidin rishta tob

Yozdi falak toqiga kilki qazo,  
Oyati “Vash-shams” bila “Vaz-zuho”<sup>6</sup>

Birinchi baytdagi so‘zlarning istilohiy ma’nosi quyidagicha: **soqiy timsolida** Alloh; **subh timsolida** inson ibtidosi; **mehr timsolida** hidoyat; **jom timsolida** esa orif ko‘ngli nazarda tutiladi.

*Mazmuni: Bu qorong ‘u koinot inson va uning irfonga to ‘la ko ‘ngli bilan munnavvar. Insonning ibtidosi qorong ‘u koinotning farahbaxsh tongidir.*

Yoki mazkur misrani quyidagicha tahlil ham qilish mumkin:

*Ey rabbim, mening qorong ‘u ko ‘nglimga hidoyat tongidan taralgan mehr nurlarinni yorit va ana shu ilohiy fayzdan mening tiyra ko ‘nglim bahramand bo ‘lsin.*

Demak, Navoiy tabiat tasvirini majoz qilish orqali ilohiy haqiqatni tasvirlaydi.

Ikkinci baytda esa osmon sahniga chiqmoqchi bo‘lgan quyosh nurlariga dosh bera olmagan tun pardasi o‘z iplari uzdi deydi.

Uchinchi baytda fikrlar yanada tadrijiy tus oladi. Shoir tabiat tasvirini Qur’oni Karimdag“Vash-Shams” va “Vaz-Zuho” surasi bilan asoslaydi. Insonning ibtido tongi Allohnning inoyati bilan voqeа bo‘lsa, kun va tun orqali ma’rifatning jaholat ustidan g‘alabasiga ishora qilinadi. Bu tasvir davom etgach, inson ko‘nglining lamokondan borliqqa, yuz tutib, olam hayratlaridan sarosimaga tushib, so‘ng uning sirlarini bilishga intilishi tasvirlanadi. Inson ko‘ngli olam hayratlarini bilishga ojiz qolganda g‘ayb xabarchisi unga nido qiladi:

<sup>4</sup> Ўша манба.76-6.

<sup>5</sup> Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса” сида хронотоп поетикаси. Монография. Турун иқбол нашриёти. – Т: 2017.

<sup>6</sup> Қуръони каримнинг 91 ва 93-сураларига ишора. 91-сурга “Қасамёд этаман Қуёш ва унинг зиёси билан” деб бошланади. 93-сурга “Қасамёд этаман чошгоҳ вақти билан” деб бошланади.



*“Sen bunday befoyda hayratlanishni bas qilginda, haqiqat asrорidan bahramand bo’lmоq istasang, atrofga basirat ko’zi bilan nazar tashlagin.*

Sirri haqiqatdin o’lub bahravar,  
Ayla basirat ko’zi birla nazar.  
Dur kibi yetgach qulog‘iga bu so‘z,  
Nuri hidoyat bila oichti chu ko‘z  
Barchasi qayumiga zokir edi,  
Har bir aning shukriga shokir edi.

Charxning bu sinoatlaridan benihoya hayratga tushgan ko‘ngil qattiq bir oh chekib o‘zidan ketadi. Shoir soqiya murojaat bilan bobni yakunlaydi.

Ikkinchи hayratda esa ko‘ngil malakkut olami va sayyoralarni uchratadi. Lekin u yer ham ko‘ngilga ma’qul kelmaydi. Uchinchi hayratda o‘z sayridan ko‘ngli to‘lmagan ko‘ngil haqiqat izlab osmondan yerga tushadi. Hayrat mayidan sarxush bo‘lgan ko‘ngil o‘ziga kelib, hayoliga vatan (badan mulki)ga qaytish fikri uyg‘onadi. U bir shaharga duch keladi. Bu shahar inson vujudi edi. Ko‘ngil inson vujudidagi turli xil o‘zgarishlarni ko‘rib hayratga tushadi. U yer ko‘ngilga yoqib qoladi va u yerda muqim qolishga qaror qiladi. Bu orqali Navoiy inson anglab yetishi kerak bo‘lgan sirri haqiqat manzili aslida inson ko‘ngili demoqchi bo‘ladi. Umuman, “Hayrat ul-abror” dostonini keng planda tadqiq etish orqali ko‘ngil butun asarning bosh asosini tashkil etishiga guvoh bo‘lamiz. Dostondagi har bir bob, maqolat va hikoyatlar barchasi yagona bir tizimga tadrijiy ravishda bog‘lanib abror insonning ko‘nglidagi azaliy siri bo‘lmish haqiqat ganjini kashf etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu vaqtgacha navoiyshunosligimizda “Hayrat ul-abror” dostonidagi “abror inson”, “abrorlik yo‘li”, “abrorlar hayrati” masalasi keng doirada tahlilga tortilmagan. Xo‘sish, bizningcha, Alloh ma’rifati anglashga uringan abror inson aslida kim?

Abror so‘zi lug‘atlarda “solih”, “taqvodor” ma’nolarida keladi. Navoiy lug‘atida esa “abror” so‘zi “yaxshi kishi”, “yaxshilar” tarzida keltirilgan. Najmiddin Kubroning “Tasavvufiy hayot” kitobida keltirilishicha, “Abror” – o‘zi, so‘zi-yu amali to‘g‘ri bo‘lganlar, yaxshilik va poklik ila tanilgan kishilar. Tasavvufda abror ikki toifaga ajratilgan: 1. Ahli futuvvat bo‘lib, bular o‘zlarining insoniylik xizmatiga bag‘ishlaganlar. 2. Maxluqotdan uzoqlashib, butunlay o‘zini Allohga bag‘ishlaganlar. Ya’ni g‘ayratga taslim zotlar” deya izohlanadi.”<sup>7</sup>

Ingliz sharqshunosi J.S.Trimengem “abror” istilohiga “muqaddas so‘fiylik iyerarxiyasidagi bir unvon” degan xulosaga keladi. Qavs ichida keltirilgan izohda esa bu so‘zning birlik shaklda arabcha “barrun” o‘zagidan kelib chiqishini, buning so‘zma-so‘z tarjimasi esa “ahdini bajaruvchilar” ekanini qayd etadi.<sup>8</sup> Tasavvufda Allohga olib boradigan yo‘llar maxluqotning nafasidan ham ko‘p deyiladi. Ammo bu yo‘llar qanchalik ko‘p bo‘lmisin. Ularni 3 ta katta guruhga birlashtirish mumkin. Ular tariqi axyor, tariqi abror, tariqi shuttordir.

1. Tariqi axyor: ibodat va amali bilan shariat amallarini bajaruvchi zotlar. Bular zohidlardir. Bu yo‘l juda uzoq mashaqqatni talab etadigan yo‘ldir. Bu yo‘l kirib o‘z maqsadiga yetganlar ozdir.

<sup>7</sup> Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Таржимон ва нашрга тайёрловчилар: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош.-Т.: Мовороуннахр.-2004.-Б. 208.

<sup>8</sup> Иктибос Узоқ Жўракуловнинг “Алишер Навоий Хамса сида хронотоп поэтикаси номли монографиясидан айнан келтирилди. Қаранг: Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. Перевод с английского под редакцией с предисловием О.Ф. Акимушкина.-М.: «Наука» главная редакция восточной литературы, 1989.-С. 277; 287.



2. Tariqi abror: mujohada va riyoza sohiblarining yo‘li. Bu yo‘l vakillari qalbni musaffo qilish, hamida axloqqa ega bo‘lish, odamlarga yaxshilik qilish, ko‘ngilni nafsoniy istaklardan poklab, uni obod qilish uchun nafsga qarshi jihod qilgan javonmard so‘fiy zotlarning yo‘lidir. Tariqi abrorlik yo‘li sanalgan ahli futuvvat vakillari ko‘proq javonmardlikka, malomatiylikka, qalandarlikka juda kuchli ta’sir etgan Masalan, juda ko‘plab zohidlar, so‘fiylar futuvvatni o‘zlarining kamoloti yo‘lida bir daraja sifatida qabul qilishgan.

3. Tariqi shuttor: bu yo‘l ilohiy jazba, ishq va muhabbat sohiblarining yo‘lidir. Bu yo‘l payg‘ambarlar, valiylarning yo‘lidir.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida tariqi axyor va tariqi abror zotlarning hayoti ibratli hikoyatlar misolida beriladi. Dostondagi abror inson ilohiy ma’rifatdan hayratga tushgan, o‘zidagi nafsoniy istaklarni yengigan, siyratida ilohiy ma’rifatni mukoshafa qilgan, suratida esa xalqning g‘amini yeydigan solih timsolida gavdalananadi. Masalan, hikoyatlardagi Boyazid Bistomi, Ibrohim Adham, Robiya Adviya, Abdulloh Ansoriy, Shayx Faxriddin Iroqiy, Imom Shayx Rozilar abrorlik yo‘liga kirib, ilohiy ma’rifatni qalb oynasida kashf etishga intilgan zotlar sifatida tasvirlansa, Shoh G‘oziy, Hotam Toy va gado, Anushirvon, qanoatli juvonmard va ta’magir jahongashta, ikki vafoli yor, Ayub Xalaf va o‘g‘ri, Abdulloh Muborak kabi obrazlarda ahli futuvvatga xos sifatlar hikoya qilinadi.

Navoiyning “Hayrat ul abror” dostoni hayrat va ko‘ngil falsafasidir. Bu falsafaning mohiyati qalb orqali kashf etiladi. Ko‘ngil Allohning san’atkorligidan va buyuk yaratuvchanligidan qanday hayratga tushgan bo‘lsa, abror inson ham Allohning buyuk yaratuvchanligidan shu qadar hayratlanadi. Adabiyotning ham vazifasi abror insonning qalbini ilohiy ma’rifatdan hayratlantirish va qalb oynasini tozalab Alloh sifatlarini aks ettiradigan ko‘zguga aylantirishdir.

### Foydalilanigan Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул аброр. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 7-том. – Тошкент: Фан, 1991.
2. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик.-Тошкент: Фан, 2001. Т.17. 67 б.
3. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур.-Т.: Чўлпон, 1992.
4. Жўрақулов У. Алишер Навоий “Хамса” сида хронотоп поетикаси. Монография. Турон иқбол нашриёти. – Т: 2017.
5. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Таржимон ва нашрга тайёрловчиilar: Иброҳим Ҳаққул, Азиза Бектош.-Т.: Мовороуннаҳр.-2004.-Б. 208.
6. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордены в исламе. Перевод с английского под редакцией с предисловием О.Ф. Акимушкина.-М.: «Наука» главная редакция восточной литературы, 1989.